Jizzakh State Pedagogical Institute

# Journal of Preschool Education

## The faculty of pre-school education

THE SCHOLARSHIP

# TEACHING ENGLISH THROUGH GAMES IN PRESCHOOL EDUCATION

Abduvohidova Sitorabonu

Sanaqulova Malohatbonu

JDPU talabalari

**Annotatsiya** . Ushbu maqolamda maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan'anaviy darslarni tashkil etishning mazmun-mohiyati, bog'cha foydalanishning o'rni va ahamiyati bayon qilingan. Mashg'ulot jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish, uning bolalar tomonidan mavzularni samarali o'zlashtirilishiga ta'siri asoslangan

**Annotations**. This article describes the essence of organizing non-traditional classes based on a new approach to the preschool education system, the role and importance of using new technologies in teaching English to children of kindergarten age. The use of didactic games in the training process is based on its effect on the effective learning of subjects by children.

**Tayanch so'zlar**: bolalar, didaktik o'yinlar, noan'anaviy, interfaol o'yinlar, mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, faollik

**Key words**: children, didactic games, non-traditional, interactive games, logical thinking, development, activity

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'limning birinchi qadami bo'libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bunga dalildir. Maktabgacha ta'lim muassasa (MTM)larida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida qiynalmasdan davom ettirishga imkoniyatlar yaratadi. Bugunga kelib xorijiy mamlakatlarda, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarini ingliz tiliga o'rgatish borasida ko'plab ta'lim dasturlari ishlab chiqarilmoqda. Masalan, Rossiya mutaxassislari M.N. Yevseyeva, T.V. Zemchenkova, L.L. Likova, I.A. Shishkova va boshqalar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasi bolalariga ingliz tilidan saboq beruvchi dastur ishlanmalari taklif etildi. Ushbu dasturlar o'zida bolalarga mo'ljalangan ingliz tilidagi so'z va iboralarni, she'rlar, qo'shiqlar va turli xil interfaol o'yinlarni mujassamlashtirgan.

Dastur ishlanmasi “Firststeps” (“Birinchi qadam”) deb nomlangan va u 2007–2010 yillari tahrirlangan “Step by step” nomli oʻquv dasturini amalga oshirishga asoslangan. “Step by step” oʻquv dasturi 5–7 yoshli maktabgacha ta’lim muassasasirirg tarbiyachilariga moʻljalangan. Rossiyaning «Pchelka» nomli bogʻchasida amalda sinovdan oʻtgan ushbu oʻquv dasturi bolalarga ingliz tilini oʻrgatishda yuqori koʻrsatkichlarga erishish mumkinligini isbotladi. “Firststeps” (“Birinchi qadam”) dasturining oʻziga xos xususiyatlaridan biri – unga asoslangan ta’lim jarayoni ingliz ertak qahramonlari (Winnie the Pooh, Tiger, Piglet, Donkey) bilan sirli oʻrmoniga sayohat tarzida tashkil etilgan. Har bir mavzu qiziqarli hikoyalarga boy boʻlib, avvalgi darsni mantiqan davom ettiradi. Bolalarda ingliz tiliga kuchli qiziqish uygʻotish maqsadida, turli koʻngilochar oʻyinlar, qiziqarli topishmoqlar, she’rlar, qoʻshiqlar, dialogli suhbatlar ishlatilgan. Bolalar sonining 5-8 tadan 10-12 tagacha boʻlishi talab etiladi. Muallifning dasturi doirasida 4-5 daqiqa davomida tanaffus e’lon qilinib, qoʻshiq kuylash, raqsga tushish majburiy hisoblanadi Ingliz tilida o’yinlar bilan o’rganish – bu yo’l . Bolalar o'yin-kulgini yaxshi ko'radilar va o'yinlardan foydalanish ular darsdan ko'proq zavq olishlarini va tezroq o'rganishlarini anglatadi. Bolalarni o'yinlar bilan o'rgatishning juda ko'p afzalliklari bor, masalan : ularnig ijtimoiy ko’nikmalari tez rivojlanadi , ular hamkorlik qiladilar va baham ko’radilar ,ular musoqalar va o]yinlarni yoqtiradilar do’stlariga o’zlarining his tuyg’ularni haqida gapiradilar ,jamoaviy ishlar ga ko’proq e’tibor beradilar Keyin, “Menga 3-variantni koʻrsating”ni oʻynang. Bu oʻyinda siz har bir bolaga yashirincha qaragan va uni yuzini pastga qaratib qoʻygan yoki koʻkragiga tutgan har bir bolaga har xil rasmli kartani tarqatasiz. Musiqiy karatalar o’yini O'n soniya davomida bir nechta musiqani (masalan, Xetti va Arslon qo'shig'ini) chaling va bolalarni xona bo'ylab harakatlantiring. Musiqani to'xtatganingizda, mevalardan birini nomlang va bu mevali bolalar rasmni hammaga ko'rsatishi kerak. Musiqa to'xtaganda, hamma qotib qolishi kerak bo'lgan elementni qo'shishingiz mumkin va faqat siz chaqirgan rasmga ega bolalar harakatlanishi mumkin. Keyin, barcha lug'atlarni chaqirganingizdan so'ng, o'quvchilar kartalarni almashtirib, yana o'ynashlarini yoki boshqa o'yinga o'tishlarini so'rang bolarga keyin mulifilim qahromonlari yordqamid ham chet tilini o’rhatishimiz mumkin

Bolalar chet tilini o’rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so’zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o’rganishda qiziq va samarali yo’l hisoblanadi.

Hozirgi kunda Xitoydagi barcha bog’chalar multimedia qurilmalari bilan ta’minlangan. Bolalar uchun ingliz tili qo’shiqlaridan tortib she’r va hikoyalar, videoroliklar orqali o’rgatib kelinmoqda. Bu zerkilarli til darslarini qiziqlarli kunlik o’yinga aylantiradi. Xitoy bog’chalarida bir gruhda 10 ga yaqin tarbiyalanuvchi bo’lib, tarbiyachi muntazam har bir bolani pisixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usuli qo’llaniladi. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo’lib qolishni emas bir vaqtning o’zida rassom, musiqachi, chet tili

o’qtuvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo’lishni ham talab qiladi. Albatta hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda Xitoyliklar yosh avlodlarga bu borada juda katta qulayliklarni yaratib berishmoqda. Xitoyda bog’cha bolalariga ingilizcha biror narsaning osongina xitoycha nomini topishga yordam beradi. Deyarli barcha tarbiyachi tayyarlov jarayonida hayvon ishoralari eng oson usul ekanligini biladi.(dog) kuchukcha – tarbiyachi egilgan holatda, kerak bo’lsa tilini chiqarib bolalarga it qiyofasini shakllantirib beradi;(rabbit) quyoncha-qolchasini ko’ksiga egig qo’ygan holatda sakrab ifoda etadi;(monkey)maymuncha-bir oz egilib yurgan holatda o’z qiyofasini namoyish etadi. Taqlid qilish hislati bo’lgan bolalar uchun bu judayam qiziq tuylib, shu zahoti ifoda etilgan hayvon nomini aytishga majbur qiladi. bu esa yangi o’tilgan so’zlarni eslab qolishga turtki bo’ladi. Xitoyda bir farzandli oilalar juda ko’p qisimni tashkil qiladi. Shu sababli bir farzandli oilalar farzandlari juda erka xarakterga ega bo’ladi. Shu o’rinda aytib o’tishimiz joizki tarbiyachining Ana shunday xarakterga ega bo’lgan bolalar yuragiga yo’l topshi oson bo’lmaydi. Tarbiyachida mehrli ko’zi, muloyim tabasumi bo’lishi kerak bu bolalarda o’zgacha tarbiyachiga bo’lgan mehrni uyg’otadi. Imo-ishora usuli bolalarni mustaqil harakat qilishga va chet tilini qiziqarli o’rganishlariga yordam beradi. Biz bu orqali chet tili o’ganish qiziqarli muhut yaratamiz mumkin Katta va tayorlov guruhlarida didaktik o‘yinlar o‘zining mazmun va g‘oyasi jixatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o‘yinlar o‘tkaza qolmay, so‘zli didaktik o‘yinlar ham o‘tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o‘tkaziladigan didaktik o‘yi nlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qayerda qilingani, nima uchun keraqligi va xakozolar to‘g‘risidagi bilimi aniqlanadi hamda mustaxkamlanadi. Bunday o‘yinlaga quydagilarni misol qilib keltirish mumkin:"Nima nimadan yasalgan?", "Guruh xonasiga sayoxat", "Ovoziga qarab top" va boshqa o’yinlarni olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Yusupov O.N. Kontekstdagi kognitiv semantika. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukove 7 (2), 84-87.

2. Yusupov O.N. O'zbekning tarjimon tilidagi inglizlaring lingvokognitiv tadqiq haqiqati. So'z badiiy jurnali. 3 son, 3 yil. B.102-105

3. . 3. Yusupov O.N. O’zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ahboratlari. 3 yil, 19 son, - TDPU, 2019. B.146-150

4. . 4. Yusupov O.N. Analiz problemy stilya v hurojestvennom perevode. Fan yo'li, 94. 2014 yil.

5. 5. Yusupov O.N. Badiiy matnning lingvokognitiv savollari. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ahboratlari,